

MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI**Usmonova Mohira Isroiljon qizi***Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 62-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matematika fanini o'qitish sifat va samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri ta'limda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish ekanligi haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Bunda o'qituvchi o'quv jarayoning rahbari va boshqaruvchisi bo'lishi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o'qituvchilarning fanga qiziqishlari yanada ortishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *avtomatik tizim, abstrakt, yozuv, kompyuter, axborot.*

Inson o'z xotirasida barcha ma'lumotlarni saqlab qolish imkoniyatiga ega emasligi hammaga ma'lum. Xotirada saqlab qolishning birinchi davrida tashqi xotira sifatida yozuv, muammoni hal qilishning ikkinchi yo'li kitob chop etish bo'ldi. Biz hozir shunday axborot texnologiyalari davrida yashayapmizki, insoniyat, yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etishning yangi yo'lini topdi. Boshqaruvning bu avtomatik tizimi yordamida ulkan ma'lumotlarni faqat saqlabgina qolmay, mavjud kitoblardan farqli ravishda ularni qayta ishlash ham mumkin. Shu ma'noda kompyuterni haqiqatdan ham insoniyatning buyuk kashfiyoti deyish mumkin.

Fan va texnikaning bunday yutuqlaridan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, o'quvchilarga Davlat ta'lim standartlarida talab qilinganidek ta'lim-tarbiya berishda kompyuter texnologiyalarinig imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uchun o'quv jarayonini tashkil etishning metodlarini takomillashtirishni talab etadi. O'qituvchi o'quv jarayoning rahbari va boshqaruvchisi bo'lib, axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o'qituvchining o'zi kabi kompyuter yangi, kuchli, mehnat samaradorligini oshiruvchi texnika vositasi bo'lib xizmat qiladi. Matematika fanini o'qitish samaradorligini oshirishning yo'llaridan biri ta'limda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanishdir.

O'tilayotgan mavzuni programmalashtirilgan holdami yoki slaydlar orqali o'quvchilarga taqdim qilganda, mavzu bitta slaydga yoki kompyuterning monitoriga joy bo'ladigan darajada kichik-kichik bo'laklarga bo'lib berilishi maqsadga muvofiq. Chunki o'quvchi uzundan uzoq mavzuni shunchaki passiv o'qib chiqmasdan, har bir qisqa bo'laklardan so'ng, o'quvchini o'ylantiradigan savol va topshiriqlar berilishi lozim. Bu topshiriqlarni o'quvchi mustaqil holda bajaradi. Topshiriqlarning qanday bajarilganligini o'qituvchi o'zining kompyuteri orqali kuzatishi mumkin. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning o'zlashtirishini bunday nazorat qilish va baholash, o'quvchilarga "qoniqarsiz" bahoga nisbatan salbiy psixologik ta'sirning kamayishiga, ularda fanni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishga hamda mustaqil ishlashga ishtiyoq o'yg'onadi. Kompyuter faqat o'quvchiga emas balki olingan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishda o'qituvchiga ham katta yordam beradi. Sinfning asosiy qismi

kompyuter bilan band bo'lganida, o'qituvchi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash, qo'shimcha savollarga javob berish yoki yangi murakkabroq masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, ortiqcha kuch sarflamasdan o'qituvchining mehnat samaradorligi oshadi.

Kompyuter nafaqat ishlab chiqarish umudorligini oshiradi, oxirgi yuz yillar davomida to'plangan malumotlarni qiynalib analiz qilish, izlash kabi mashaqatli mehnatdan qutqardi, yuqori darajada borliqni anglash uchun yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Matematika fani nisbatan abstrakt fikrlashni talab qilganligi sababli, uni o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, o'quv tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda uchun juda qulay ko'rgazmali texnika vositasi hisoblanadi. Matematika o'qituvchisi ixtiyorida nazariya va tajribani, o'tilgan nazariy materiallarni o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazish uchun amaliy va hayotiy masalalar bilan birga olib borish uchun ko'pgina vositalar mavjud. Ular qatorida eski vositalardan biri oddiy taxta va bo'rni aytsak, so'ngi vaqtlarda ta'limga kirib kelgan videoroliklar, axborot texnologiyalari orqali olib borilayotgan yangi o'quv dasturlari, elektron doskalar yangi vositalari sifatida e'tirof etilganib, ular nafaqat o'quv samaradorligini oshirishga balki, o'qituvchining ham mashaqatli mehnatini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Har qanday predmetni o'qitishni tashkil etish jarayoni bu aniq yo'naltirilgan mantiq va munosabatlarni to'g'ri tanlashning o'zaro umumlashmasidir. Masalan, o'qitish jarayonini to'g'ri samarador tashkil etish bilan amaliyotda har doim ham talaba yoki tinglovchini o'quv faniga qiziqtirib bo'lmaydi. Kompyuterning yana bir qulaylik tomoni shundaki, o'quv fanlaridan mavzularbo'yicha testlar tayyorlab, ular asosida o'quvchilar bilimini nazorat qilish, imtihonlarga tayyorlash, baholash, mumkin. Kompyuterlashtirilgan testlar sezilarli darajada tekshirish ishlarini osonlashtiradi. Natijada, o'qituvchi o'zlashtirish bo'yicha nazoratni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'p sonli yoki kam sonli guruhlar uchun bir xil darajada qiyin bo'lgan turlicha testlar tuzish va tanlash mumkin.

Demak, barcha o'quv fanlarini o'qitishda kompyuterdan eng yaxshi vosita sifatida oqilona foydalanilsa, ta'lim-tarbiyada samarali natijaga erishish mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yunusova D.I. Matematikani o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007-258 b.
2. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari.- T.: Fan 3. Yagudayev B. Ya. Ajoyib sonlar olamida.- Toshkent: "O'qituvchi", 1979.
3. Abdurahmonov B., Matematik induksiya metodi Toshkent, 2008.